

Valimuhammadxon



Valimuhammad ibn Jonibek sulton

(?- 1611 yil, 27 avgust)

Ashtarkoniylardan bo'lgan Buxoro xoni (1605-1611). Akasi Boqimuhammadxon davrida Balx noibi (1599-1605). Boqimuhammad vafotidan so'ng Buxoro taxtiga o'tqazilgan. Valimuhhammadxon dan so'ng Balx hokimi bo'lgan Nadrmuhammadxon boshliq mahalliy amaldorlar Imonqulixonni Buxoro taxtiga o'tqazish uchun Valimuhhammadxonga qarshi fitna uyushtirganlar. 1611 yilning bahorida Valimuhhammadxon Imonqli va Nadrmuhammadxonlar bilan bo'lgan kurashda yengilgach Imomqulixon Buxoro xoni deb e'lon qilingan. Valimuhammad esa ikki o'g'lini olib Eron shohi Abbos huzuriga qochib borgan. Amirlar Boqimuhammadxonning o'g'li Imomqulixonni taxtga o'tqazganlar. Valimuhammad Abbos yordamida Mavarounnahri qaytarib olishga harakat qilgan. Tarixchi Muhammad Yusuf munshi „*Tarixi Muqimxoniy*” asarida yozishicha, shoh Abbos Imomqulixonaga qarshi kurashish uchun Valimuhhammadxonga 80 ming kishilik qizilboshlilar qo'shinini bergen. Biroq Samarcand atrofidagi Bog'i Shamolda bo'lgan jang (1611 yil avgust)da Imomqulixon g'alaba qozongan, Valimuhammad asir olinib qatl etilgan.

2023-11-02 16:56:01